

9 sinf Algebra IV chorak 8-BSB topshiriqlari va mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball
V bob. Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika elementlari (9 soat)		Hodisalar ehtimolligini ehtimollikni topish qoidasi yordamida topa oladi	Bir xil kartochkalarga 1 dan 12 gacha sonlar yozildi (har bir kartochkaga bittadan son yozildi). Kartochkalar stolga teskarisi bilan qo'yildi va aralashtirildi. Tasodifan olingan kartochkaning: 1) 5 ga teng; 2) juft son; 3) 3 ga karrali; 4) 4 ga karrali; 5) tub son bo'lish ehtimolligini toping.	5
	Hodisaning ehtimolligi	Turli tasodifiy hodisalar ehtimolligini topa oladi	Qutida 5 ta qizil, 4 ta qora, 6 ta ko'k shar bor. Tasodifiy ravishda qutidan bitta shar olindi. Olingan shar: 1) qora; 2) qizil; 3) ko'k 4) qora emas; 5) qizil emas; 6) ko'k emas; 7) yoki qora, yoki qizil, yoki ko'k bo'lishlik ehtimolligini toping.	6
	Tasodifiy hodisaning nisbiy chastotasi	Tasodifiy hodisaning nisbiy chastotasini topa oladi	Bir shaharda 920 ta odamdan ishga qanday yetib borishlarini so'rashganda ularning: - 350 tasi avtomobilda; - 420 tasi jamoat transportida; - 80 tasi velosipedda; - 70 tasi piyoda borishlari ma'lum. 1) avtomobilda; 2) jamoat transportida; 3) velosipedda;	4

		4) piyoda boruvchilar sonining nisbiy chastotasini toping.	
Tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalar i	Tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalar qiymatlarini topa oladi	Tanlanmaning modasi, medianasi, kengligi va o'rtachasini toping. 18, -3, 16, 4, 11, 5, 4, -5, 1, 3	5
	Tanlanmaning dispersiyasi va o'rtacha kvadrat chetlanishini topa oladi	Tanlanmaning dispersiyasi va o'rtacha kvadrat chetlanishini aniqlang. -3, 3, -4, -2, 5	5
Jami			25 ball